

G'O'ZANING TURLARARO VA NAVLARARO DURAGAYLASH ASOSIDA YANGI QIMMATLI SHAKLLARINI YARATISHNING AHAMIYATI

Boboxujayev Shuhrat Umarovich

O'zMU Biologiya fakulteti Genetika kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: bobohujayev@mail.ru

Sanamyana Marina Feliksovna

O'zMU Biologiya fakulteti G'o'za genetika bosh ilmiy hodimi

E-mail: sanam_marina@rambler.ru

Ravshanova Aziza Murtoza qizi

O'zDJTU Ekologiya va yashil resurslar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: aravshanova162@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474164>

G'o'zaning yovvoyi va yarim yovvoyi turlarining noyob belgi-xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish, yangi nav yaratishda turlararo murakkab duragaylash uslubining samaradorligi, chatishtirish davomida kuzatiladigan kamchiliklar, madaniy navlar genotipini boyitishda yovvoyi turlarning ahamiyati, turlararo duragaylashda kuzatiladigan genetik qonuniyatlarni o'rganish va tahlil qilish borasida AQSh, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa yetakchi paxtachilik davlatlarining ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida tadqiqodlar olib borilgan va ular hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

G'o'zaning turlararo duragaylar olish yuzasidagi tadqiqot muammolari qatoridan, turli genomlarga mansub g'o'zaning yovvoyi va yarim yovvoyi shakl va turlarini sitogenetik va sitotaksonomik o'rganish masalalari ham muhim o'rin olgan. Olib borilgan izlanishlarda turlarning yaqinligi va o'zaro filogenetik munosabatlari, olingan F₁ avlod duragaylarining pushtsizlik amolatlari va sabablari, tur va liniyalarning chatishmaslik va qiyin chatishishlarining sabablari va ularni yengib o'tish, seleksiya va genetika sohasidagi boshqa nazariy va amaliy, dolzarb bo'lgan masalalari ko'tarilgan va ushbu tadqiqotlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, turlararo duragaylash va ular asnosida yaratilgan navlarda ham turli chatishtirish sxemalari yaratilib kelinmoqda. Ushbu sxemalar asosida hozirgi kunda bir qancha liniylar olingan: **ILs** - Introgression lines, **CSSs** - Chromosome substitution strains -, **CSSLs** - Chromosome segment substitution lines, **MSA** - Marker assisted selection, **BC** - Back cross lines, **RCSLs** - Recombinant chromosome substitution lines, **CMS** - Cytoplasmic male sterility, **BAC** - Bioinformatics analysis uses the published sequence, **PAC P1**- derived artificial chromosome, **BILs** - Backcross inbred lines, **NILs** - Near-isogenic lines [1].

Shunday qilib, ushbu liniylar g'o'zaning genetik xilma-xilligini kengaytirishga va g'o'za genomini xaritalashda va genetik-seleksiyada yangi navlar yaratish uchun boshlang'ich donor manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Reddy J.P., Dubey N., Avinashe H., Kalubarme S., Reddy T.N.S. Development and utilization of chromosome substitution Lines (Csls)// European journal of molecular and clinical medicine. V-7(2020), P.-2411-2423.